



## MISKIN BOBO – SHOVTOT TUMANIDAGI E`TIBORDAN CHETDA QOLAYOTGAN ZIYORAT OBYEKTI

Ollayorov Islombek Farhod o`g`li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti  
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: [islomolloyorov58@gmail.com](mailto:islomolloyorov58@gmail.com)

ORCID:0009-0009-2745-9720

Tel:+998919120250

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18164230>

### ARTICLE INFO

Received:29th December 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> December 2025

Published:31st December 2025

### KEYWORDS

ziyorat turizmi, Miskin bobo, ziyoratgoh, Vayongan bobo, Cho`qli, infratuzilma, kuzatuv usuli.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Xorazm viloyati Shovot tumani Cho`qli qishlog`i hududida joylashgan Miskin bobo ziyoratgohining tarixiy-ma`naviy ahamiyati hamda hozirgi kundagi holati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy obyektning tuman ziyorat turizmidagi ahamiyati va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ta`siri yoritilgan. Mazkur ziyoratgohning ziyoratchilar oqimini oshirish borasida yuzaga kelayotgan bir qator muammolari tahlil qilinib, ularga yechimlar sifatida takliflar beriladi.*

### Kirish

Ziyorat turizmi-hozirgi kunda keng tarqalgan turizm sohasi hisoblanadi. Ziyorat turizmi mohiyatan ziyoratgohlarni ziyorat qilish jarayonidir. Odatda, ziyoratlar diniy maqsadlar uchun kunlar, haftalar yoki hatto oylar davomida olib boriladigan uzoq safarlarni tashkil qiladi. Ziyorat deganda, o`tgan avliyolar orqali Qodir Tangriga murojaat qilish, ongi va ruhini tinchlantirish, muqaddaslik haqiqatini anglash, yolg`izlik va poklanish yo`lidan o`tish tushuniladi. Markaziy Osiyoda muqaddas joylarga tashrif buyurishni ziyorat deb atashadi. O`zbekiston har doim ko`plab madaniyatlar va sivilizatsiyalarning kesishish markazi bo`lib kelgan, bu yerda turli dinlar targ`ib qilingan, shuning uchun ham islom, ham buddizm va xristian dinlariga tegishli noyob yodgorliklar saqlanib qolgan[1]. O`zbekiston hududida aholining asosiy qismi azaldan Islom diniga e`tiqod qilganligi bois ko`plab islomiy ziyorat obyektlarini uchratish mumkin. Miskin bobo ham bu ziyorat obyektlari qatorida turadi. Xususan, 2025-yil holati bo`yicha respublikada 1200 dan ortiq islomiy ziyorat obyektlari mavjud bo`lib, shundan 136 tasi Xorazm viloyatiga to`g`ri keladi[2]. Viloyatning asosiy ziyorat maskanlaridan bo`lgan Shovot tumanida atigi 2 ta ziyoratgoh bu ro`yhatga kiritilgan-Yusuf Hamadoniy va Vayongan bobo majmualari. Afsuski, tumandagi yana bir muhim ziyorat maskani hisoblangan Miskin bobo bu ro`yhatga kiritilmagan. Vaholanki, obyekt mahalliy aholi orasida qalban poklanish, ruhiy taskin beradigan joy sifatida ancha mashhur. 2025 yilning dastlabki yetti oyi mobaynida bu ziyorat obyektlariga O`zbekistonga kelgan 6,3 million xorijiy turistning 4,3 millioni tashrif buyurgan[3]. Bu raqamlarning o`zi ham ziyoratgohlarning turizmdagi ahamiyati qanchalik muhim ekanligini ko`rsatib beradi. Bu turistlar faqatgina tashrif buyurish imkoniyatlari ega bo`lgan davlat ro`yhatidagi ziyorat maskanlariga kelgan xolos. Hali respublikada Miskin bobo singari turistik imkoniyatlari e`tiborga olinmayotgan qanchadan qancha ziyoratgohlar mavjud. Bunday turdagi obyektlarni rivojlantirish orqali o`lkaga kelayotgan turistlar sonini yanada oshirish mumkin. So`nggi yillarda O`zbekistonda turizmning barcha yo`nalishlari, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Shu asosda Vazirlar Mahkamasining 2021-yilda „Ichki va ziyorat turizmini

rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi[4].Unga binoan rejalashtirilgan turizm salohiyati yuqori bo'lgan madaniy meros obyektlarida tashrif buyuruvchilar uchun shart-sharoitlar yaratish,ziyosat turizmi marshrutlarida foydalaniladigan madaniy meros obyektlarining 2021-2025-yillarda ustuvor ravishda restavratsiya qilish dasturi,uzoq xorij va qo'shni respublikalardan xorijiy turistlarni qabul qilish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tuzish,xorijiy tillarga tarjima qilinadigan va targ'iboti keng amalga oshiriladigan, allomalar va ziyoratgohlar to'g'risidagi filmlar ro'yxatini tuzish kabi muhim yo'nalishlar belgilandi.Shu va shunga o'xshash qonun va qarorlar boshqa ziyosat obyektlari qatorida Miskin bobo ziyoratgohini ham davlat darajasida muhofaza qilinishiga hamda hududdagi ziyosat turizmi salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Miskin bobo ziyosat obyektiga tashrif buyurayotgan ziyoratchilarning kamligini undagi infratuzilmaviy muammolar va davlat tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi bilan izohlasak bo'ladi.Xorijiy adabiyotlarda shunga o'xshash e'tibordan chetda qolayotgan ziyosat maskanlarining mamlakat turizm salohiyatini oshirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi.Xususan,Timothy va Olsen (2006) o'z tadqiqotlarida[5],ko'plab muqaddas joylar,ayniqsa,kam targ'ib qilingan yoki yetarlicha rivojlanmagan ziyosat obyektlari milliy turizm salohiyatida o'z o'rniga ega emasligini ta'kidlaydilar.Bunday joylarni turizmga jalb qilish nafaqat ziyoratchilarga yangi sayohat tajribasini,yangi joylarni ko'rishni va yangicha ruhiyatni taqdim etadi, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.Mualliflar shuningdek, diniy sayohatlarni tashkil etishda ziyosat obyektlariga e'tibor berish, infratuzilmani yaxshilash va mahalliy hamjamiyatni jalb qilish muhimligini ta'kidlaydi. Kam e'tibor qaratilgan maskanlar, xususan,Miskin bobo kabi ziyosat obyektlari,hududda turizmning barqaror rivojlanishi va diniy tajribaning kengayishiga aks ta'sir qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Timothy va Olsen (2006) yondashuvi Miskin bobo ziyosat obyekti ilmiy jihatdan tahlil qilish va uning turizm salohiyatini rivojlantirishda foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek,Shackley (2001) o'zining asarida[6] ziyoratgohlarning turizmdagi o'rni va boshqaruv masalalarini tahlil qiladi. Muallifning ta'kidlashicha, dunyodagi eng mashhur tashrif buyuriladigan joylarning ko'plari muqaddas hisoblangan diniy va ziyosat obyektlari bo'lib, ularni boshqa turistik maskanlardan ajratib turadigan asosiy jihat - ularning boshqaruvi va ziyoratchilarga xizmat ko'rsatish shaklidir. Ko'pincha bu kabi muqaddas joylar foyda ko'rish maqsadida ishlamaydigan notijorat tashkilotlar sifatida boshqariladi va ziyoratchilarga xizmat ko'rsatish ularning asosiy faoliyati hisoblanmaydi.Miskin bobo ziyosat obyekti ham xuddi shunday holatni namoyon etadi. Hududda joylashgan ushbu qadamjo boshqa diniy obyektlar singari „Vaqf“ jamoat fondi tasarrufida bo'lib,xalq orasida ma'naviy va diniy markaz sifatida qadrlanadi.Biroq uning boshqaruvi yetarlicha rivojlanmagan. Mahalliy mutaxassislar va rahbarlar ko'pincha o'zlarini sayyohlar uchun xizmat ko'rsatuvchi sifatida emas,balki ibodatni ta'minlovchi va muqaddas obyektning vasiylari sifatida ko'rishadi.Natijada,Miskin bobo ziyosat obyektiga e'tibor cheklangan bo'lib, uning turizm salohiyati to'liq ro'yobga chiqmayabdi.Shackley ziyoratchilarning motivatsiyalari murakkab va ko'p qirrali ekanini ta'kidlaydi:ba'zi ziyoratchilar ruhiy tajriba izlaydi(diniy),boshqalar esa shunchaki diqqatga sazovor joy sifatida tashrif buyuradi(dunyoviy).Muqaddas obyektlarni boshqaruvchilarning vazifasi- tashrif buyuruvchilarning belgilangan ziyosat qoidalariga amal qilishlarini ta'minlash bilan birgalikda obyektning ommaviy xorijiy sayyohlarni qabul qilish natijasida dunyoviy sayyohlik nuqtai nazariga tushirishdan ham saqlashdir.Miskin bobo misolida ham aytish mumkinki,ziyoratchilar bir qator maqsadlarda tashrif buyuradi: ba'zilar ibodat uchun keladi, ba'zilar esa tarixiy va madaniy qiziqishlari tufayli joyni

o'rganadi. Mahalliy yoshi kattalar tabiiyki ziyoratgohdagi diniy tartib qoidalarni yaxshi bilishadi, biroq, boshqa viloyat yoki hududdan kelgan ziyoratchilarda bu borada tushunmovchilik bo'lishi mumkin. Miskin bobo atroflarida yashaydigan mahalliy aholining aytishi bo'yicha, ziyoratgohga kelgan insonga Miskin bobo va uning tarixi haqida ma'lumot berilmaydi. Bu tabarruk shaxs haqida ma'lumotlarning juda kamligi ham aslida shu sababdan. Shackley ta'kidlashicha, qarovsiz muqaddas qadamjolarini barqaror ravishda boshqarish tizimini takomillashtirish va ziyoratchilarga xizmat ko'rsatishni belgilangan standartlar asosida tashkil etish orqali rivojlantirish mumkin bo'ladi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida Miskin bobo ziyorat obyekti Shovot tumani ziyorat turizmidagi o'rnini ilmiy asoslash maqsadida mahalliy yozma va statistik manbalarga hamda faxrli diniy vakillarga murojaat etgan holda kuzatuv, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Yozma va statistik manbalar tadqiqotning ishonarlilik darajasini oshirishga yordam bergan bo'lsa, kuzatuv usuli orqali bevosita obyektidagi muammo va imkoniyatlar o'rganildi. Malumotlarning ishonchliligi Ozbekiston Respublikasi Turizm va madaniy me'ros vazirligi, Shovot tumani hokimiyati rasmiy veb-saytaridan foydalanganlik bilan ta'riflanadi.

### Natijalar

Ushbu tadqiqot davomida Miskin bobo hududida kuzatuv ishlari olib borilganda, ziyoratgohning bosh mas'ul vakili Miskin bobo nomli qadamjo faqat Shovot tumanida emas, balki Gurlan tumanida Miskin bobo nomli qabriston borligi, shuningdek, Xiva aholisi og'zaki rivoyatlarida ham Miskin bobo nomi hudud bilan birgalikda tilga olinishini aytib o'tdi. Lekin, bu tarixiy shaxsning haqiqiy va asosiy maqbarasi aynan Shovot tumani Cho'qli qishlog'ida joylashganligi ma'lum qilindi. Miskin bobo taxminan 2 gektar maydonni egallagan. Asosiy obyektlar ziyoratgohning shimoliy, janubiy va sharqiy tomonlarida joylashgan. Xususan, sharqiy tomonda asosiy qadamjo Miskin bobo maqbarasi qad ko'targan. Rivoyatlarga ko'ra, Miskin bobo kamtar hayot kechirib, dunyo boyliklaridan yiroq tarixiy shaxs bo'lgan. U odamlarni sabr-toqatga, halollikka chaqirgan va yig'gan mol-mulkini hammasini muhtojlarga berib, xalq orasida „miskin“ ya'ni „kamtar“, „sodda“ degan laqabni oladi. Markaziy qismda esa ziyoratchilar ovqatlanib dam olishlari uchun samovar, qozonxona, ayvon, yog'och supalar mavjud. Niyat qilgan insonlar shu yerda bemalol qo'y so'yib ehson qilishlari mumkin. Markazda bular bilan yonma yon ravishda 2005-yilda qurilgan Umar Xo'ja maqbarasi ham joylashgan. Xalq e'tiqodiga ko'ra, bu inson Miskin boboning shogirdi bo'lib, Qur'on masalalarida yoshlarga ta'lim bergan va ustozlari vafotidan keyin uning ma'naviy yo'lini davom ettirgan. Ziyoratgohning shimoliy kiraverish tomonida eski masjid joylashgan. U o'z vaqtida monoqliklarning asosiy juma namozi o'qiladigan masjidlaridan biri bo'lgan. Afsuski, hozirgi kunda faoliyat yuritmayotganligi sababli xaroba holatiga kelgan.

Qiyosiy usul doirasida turistik obyektni shu hududdagi Vayongan bobo ziyorat majmuasi bilan taqqoslashga qaror qildik. U Miskin bobo turistik obyektidan 5.4 km shimoli-sharqda joylashgan.

### Jadval

Taqqoslanishi:	Miskin bobo	Vayongan bobo
Kelib chiqishi	Taxminan XVIII-XIX asr	XVI asr
Maydoni	2 ga	47 ga
Manba	Og'zaki rivoyatlar	Og'zaki va yozma

Ma'naviy ahamiyati	Islomiy e'tiqod va ruhan taskin topadigan joy	Ziyorat va qalban poklanish maskani
Turistik salohiyati	Yiliga taxminan 1,000 nafar mahalliy ziyoratchilar	Yiliga taxminan 8,000 mahalliy va xorijiy ziyoratchilar
Infratuzilma	Cheklangan	Nisbatan rivojlangan

Jadvaldagi ma'lumotlar asosida bu ikki ziyorat obyekti o'rtasida yetarlicha farq borligini ko'rish mumkin[7]. Bu farq majmualardagi tarixiy obyektlar sonida ham yaqqol ko'rinadi. Xususan, Vayongan bobo ziyoratgohida Vayongan bobo, Xazrat Eshon bobo, Shayx Hasan Savroniy va Shoqosim Anvari singari 20 dan ortiq diniy ulamolarning qadamjolari mavjud[8]. Miskin bobo hududida esa asosiy 2 ta mahalliy aholi ziyorat qiladigan Miskin bobo va uning shigirdi Umar Xo'ja maqbaralari joylashgan. Albatta, ziyoratgohdagi tarixiy obyekt sonining kamligi tashrif buyuruvchilar soniga salbiy ta'sir qiladi. Lekin Vayongan boboda yetarlicha ziyorat obyektlari bo'lishiga qaramasdan, uning turistik salohiyatiga nisbatan kam tashriflar bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Ziyorat maskanlaridagi bu muammo ulardagi turistik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va aholi orasida targ'ibot ishlarining sustligi bilan belgilanadi. Tadqiqot davomida turistik infratuzilmani yuqori darajaga ko'tarish orqali bu Miskin bobodagi 2 ta maqbaraning o'ziga ham ko'plab ziyorat maqsadidagi ichki va xorijiy turistlarni jalb qilish mumkinligi o'rganildi.

### Muhokama

Bilamizki, ziyorat turizmi nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma'naviy merosni asrashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Xorazm viloyatida joylashgan Miskin bobo ziyoratgohi hududiy turizm salohiyatini oshirishda muhim ob'ektlardan biri bo'lishi mumkin. Ziyoratgoh mahalliy aholi uchun ma'naviy poklanish, duo va niyatlar bilan bog'liq maskan hisoblanadi. Ammo obyektning infratuzilma darajasi pastligi uning turizm imkoniyatlarini cheklagan. Tadqiqot davomida obyektning qulay iqtisodiy hududda joylashganligi aniqlandi. Miskin bobo ziyoratgohining oldidan markaziy avtomobil yo'li o'tgan. Bu yo'l Shovot tumanini Turkmaniston bilan bog'laydi. Darhaqiqat, Miskin bobo O'zbekiston-Turkmaniston bo'xona postidan 8.5 km masofada joylashgan. 2025-yil noyabr oyida bo'xona postida rasman ochilgan „Shovot-Toshhovuz“ chegaraoldi savdo zonasi ziyoratgohga keladigan ziyoratchilar sonining o'sishini ta'minlash ehtimoli yuqori. Bu qulaylik nafaqat turistik infratuzilmani rivojlantirishga yordam beradi, balki, turkmanistonlik va boshqa xorijiy ziyoratchilarning obyektga tashrifini osonlashtiradi. Undan tashqari, ziyoratgoh yonida mahalliy „Cho'qli“ bozori ham mavjud. Bozorga kelgan mahalliy va boshqa tumanlik insonlar Miskin boboni ziyorat qilib, u zot haqlariga duo o'qishadi. Bu orqali tashrif buyuruvchilar soni yanada oshadi. Aynan bu imkoniyatlarning mavjudligi obyektning alohida davlat tomonidan e'tiborga olinishini va rivojlantirilishini talab qiladi. Hozirgi kunda Miskin bobo maqbarasi va uning atrofidagi obyektlar ta'mirtalab ahvolga kelib qolgan. So'qmoqlarga shag'al yotqizilmaganligi sababli sho'rlanish va namlik darajasi ko'tarilib, obyektlar holatini yanada yomonlashtirgan. Maskandagi ziyoratchilar dam olishiga mo'ljallangan xonalar, ayvonlar zamonaviy rekonstruksiya muhtoj. Shimol tomondagi masjid ham qarovsiz holatda bo'lib, mahalliy aholi uni yana yangidan juma masjidi sifatida ko'rishni xohlamoqda. Bu muammolarni bartaraf etmasdan turib ziyoratchilar oqimini oshirish imkonsiz.

### Xulosa va takliflar

Miskin bobo ziyoratgohi haqida ma'lumot deyarli hech bir manbada uchramaydi. Tadqiqot davomida obyekt haqidagi ma'lumotlarni faqatgina Shovot tumani hokimiyati berishi

mumkinligi va ziyoratgohning mas'ul vakili ham bu ma'lumotlar oshkor qilinmasligini ma'lum qildi. Bu holat ziyoratchi sayyohlarning obyekt haqidagi taassurotini salbiy tomonga o'zgartirib yuborishi mumkin. Chunki ziyoratchilarda olingan ma'lumotlar orqali ziyoratgoh, umuman, hudud haqida tasavvur shakllanadi va shu orqali maskanga qiziqishi ortadi. Shuningdek, mas'ul vakil bilan suhbatlashish davomida Miskin bobo ziyoratgohiga uning turistik salohiyatini oshirish maqsadida qo'shimcha ravishda yosh va malakali kadrlar hamda targ'ibotchilarning ham kerakligi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar va izlanishlar natijasida Miskin bobo tarixiy obyektini turistik ziyorat maskani sifatida rivojlantirish uchun quyidagicha takliflar berildi:

**Birinchi**dan, Miskin boboni ziyoratgoh obyektini sifatida davlat madaniy obyektlari ro'yhatiga kiritish va muhofaza qilish;

**Ikkinchi**dan, ziyoratgoh va uning atroflarini zamonaviy ravishda kapital ta'mirdan chiqarish;

**Uchinchi**dan, xalq og'zaki ijodi va rivoyatlarini to'plab, Miskin bobo ziyoratgoh hududi va uning tarkibidagi tarixiy obyektlar haqida rasmiy manba yaratish hamda kelajakda undan ziyoratchilar foydalana olishi uchun imkoniyat yaratish;

**To'rtinchi**dan, ziyorat turizmi bo'yicha tumanda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

**Beshinchi**dan, ziyoratgohga yaqin hududda uzoqdan kelgan ziyoratchi turistlar uchun kichik mehmon uylari tarmog'ini va ovqatlantirish tizimini yaratish;

**Oltinchi**dan, markaziy va ichki avtomobil yo'llarini jahon standartlariga mos ravishda ta'mirlash.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bozarov N. Ziyorat turizmi tarixi va uning turizm sohasida tutgan o'rni // Ta'lim fanlari sohasidagi akademik tadqiqotlar jurnali, 2022. 540-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti - <https://stat.uz>.
3. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi asosiy biznes va siyosiy voqealarni yorituvchi onlayn nashr - <https://www.uzdaily.uz>.
4. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi - <https://lex.uz>.
5. Timothy D.J va Olsen D.H. Tourism, religion and spiritual journeys. - London, 2006. 6-12-b.
6. Shackley M. Managing sacred sites: Service provision and visitor experience. - London, 2001. 4-9-b.
7. Shovot tumani hokimligining rasmiy veb-sayti - <https://shovothokimiyat.uz>.
8. Sul'tonov V. Vayongan shahrinann galsin avazim. Mahmud az-Zamaxshariy nashriyoti. - Xorazm, 2022. 5- va 49-b.